

MAHALLADA NIZOLI OILALAR BILAN ISHLASH FAOLIYATIDA PROFILAKTIKA INSPEKTORI VA XOTIN-QIZLAR FAOLINING O‘ZARO HAMKORLIGI

Tinchlikova Fotima Alisher qizi

IIV Akademiyasi 3-o‘quv kursi 313-guruh kursanti, safdor

Ilmiy rahbar: O‘roqov Jasur Rustamaliyevich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mahallada nizoli oilalar bilan ishlash faoliyatida profilaktika inspektori va xotin qizlar faolining o‘rtasidagi hamkorligi ahamiyati yoritilgan. Jamiyat farovonligini taminlash va oilaviy ziddiyatlarni oldini olishda ushbu hamkorlik muhokama qilinadi. Maqola nizoli oilalar bilan ishlash jarayonida huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordamlar muhimligini ochib beradi.*

Аннотация: *В статье подчеркивается важность сотрудничества инспектора по профилактике и активиста женского движения при работе с конфликтными семьями. Обсуждается такое сотрудничество в целях обеспечения благополучия общества и предотвращения семейных конфликтов. В статье раскрывается важность юридической, психологической и социальной поддержки в работе с конфликтными семьями.*

Kalit so‘zlar: *Nizoli oilalar, hotin qizlar faoli, huquqiy maslahat, oilaviy muommolar, psixologik yordam, ijtimoiy himoya, huqubuzarlikni oldini olish.*

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Oila tinch va farovon bo‘lsa davlatimiz ham tinch va barqaror bo‘ladi. Jamiyat xavfsizligini taminlash va oilaviy huqubuzarliklarni oldini olish maqsadida nizoli oilalar bilan ishlash zarur. Bu holatda profilaktika inspektori va xotin-qizlar faolining o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda fuqarolarni yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik siyosiy va iqtisodiy salohiyatlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar ishlab chiqilayotganligi bejiz emas. Ya‘ni Prezidentimiz tomonidan 2022 yilda 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-son Farmon imzolandi. Ushbu farmonning 7-bandida har bir shaharcha, qishloq, ovulda har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi. Endilikda xotin-qizlar va ularning oilasida yuzaga kelayotgan muommo va nizolarni profilaktika

inspektori bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib bormoqdalar. Oilani oila qilib turuvchi farzandlar tarbiyasini yuksalishida katta hissa qo'shadigan inson albatta ayol kishidir. Uning oilasi nizoli holatga kelib qolsa albatta profilaktika inspektoriga murojaat qiladi, lekin asosiy muommoni aytolmaydi, ayol dardini ayol tushunadi deganlaridek xotin qizlar faoli bilan maslahatlashganda barchasiga aniqlik kiritadi. Ya'ni profilaktika inspektori oila a'zolari o'rtasida huquqiy targ'ibot olib borib, ularga qonuniy maslahat bersa, xotin qizlar faoli esa ayollar va bolalar bilan muloqot qilib, nizoning ildiz sabablarini o'rganadi va yechim topishga yordam beradi. Zarur hollarda jabrlangan shaxslarni himoya qilish uchun xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori reabilitatsiya qilish, ishga joylashtirish va boshqa huquqiy yordamlar beradilar. Zero profilaktika inspektori va xotin-qizlar faolining tizimli hamkorligi oilaviy kelishmovchiliklarni erta aniqlab, ularni oldini olish va hal qilishda samarali natijalar berishi mumkin. Mahallada nizoli oilalar bilan ishlashda profilaktika inspektori va xotin-qizlar faoli bilan hamkorlik masalasiga ko'plab olimlar ijtimoiy, psixologik va huquqiy nuqtayi nazardan yondashgan. Quyida ushbu mavzu bo'yicha ba'zi olimlarning fikrlari keltiriladi: Olimlarning fikrlariga ko'ra, nizoli oilalar bilan ishlashda kompleks yondashuv zarur. Profilaktika inspektori va xotin-qizlar faolining hamkorligi huquqiy, psixologik va ijtimoiy muammolarni tizimli ravishda hal etishga yordam beradi. Ularning hamkorligi jamiyatda oilaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Misol uchun U. Bronfenbrennening ekologik tizimlar nazariyasiga ko'ra, inson hayotiga turli darajadagi ijtimoiy institutlar (mahalla, oila, davlat idoralari) ta'sir ko'rsatadi. Nizoli oilalar bilan ishlashda ham ushbu tizimli yondashuv muhimdir. Yana bir olimning fikrlari quyidagicha keltirilgan: A. Maslovning ehtiyojlar nazariyasiga ko'ra, insonning asosiy ehtiyojlari qondirilmasa, nizolar kelib chiqishi ehtimoli ortadi. Shu sababli bunday hamkorlik nafaqat nizoli oilalar, balki butun jamiyatning xafsizligi uchun ham muhimdir. Lekin shuncha harakatlarga qaramay hamkorlikda ayrim kamchiliklarni ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ba'zi profilaktika inspektori va xotin-qizlar faoli oilaviy nizolarni hal qilishda psixologik ko'nikmalarga ega emas. Nizoli oilalar bilan ishlash uchun davra suhbatlari maxsus psixologik treninglar yetarli darajada o'tkazilmasligi, hodimlarning muomila madaniyati past bo'lganligi sababli nizoli oilada jabrlangan ayollar va bolalar o'z huquqlarini talab qilishga qo'rqadilar, oqibatda fikrini keng bayon qilib berish imkoniyati cheklanib qoladi. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun, mahalla xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektorlarini muomila madaniyatini yuksaltirish, malakasini

oshirish, huquqiy va ijtimoiy himoyani kuchaytirish kerak bo'ladi. Chunki har bir hodim fuqarolar bilan yahshi muloqot olib borib nizoli oilalar bilan ishlashni yanada takomillashtirsa ularning soni ham kamayadi. Boshqa davlat tajribasida ham ko'rishimiz mumkin: Misol uchun Germaniyada Germaniyada nizoli oilalar bilan ishlashda "Violence Prevention Networks" deb nomlangan maxsus dastur mavjud. Bu dastur:

- Oilaviy nizolarni oldini olish uchun erta bosqichda harakat qilish;
- Ayollar va bolalar uchun maxsus reabilitatsiya markazlari tashkil qilish;
- Oilaviy zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan maxsus psixologik dasturlar orqali ishlashni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, har bir mahallada **"Familienhilfe" (Oila yordami)** markazlari tashkil etilgan bo'lib, ushbu markazlar profilaktika inspektorlari, xotin-qizlar faollari va psixologlar tomonidan birgalikda boshqariladi. AQShda oilaviy nizolarni hal qilish uchun maxsus "Oilaviy zo'ravonlikka qarshi bo'limlar" (Domestic Violence Units) tashkil etilgan. Bu bo'limlar:

- Mahalliy politsiya xodimlari (profilaktika inspektorlari);
- Ijtimoiy xodimlar va psixologlar;
- Xotin-qizlar huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Har bir mahallada oilaviy muammolar bo'yicha maxsus "Resurs markazlari" tashkil etilgan bo'lib, ayollar va bolalar u yerda bepul huquqiy va psixologik yordam olishi mumkin. Shuningdek, ko'pgina shtatlarda "Himoya orderi" (Restraining Order) tizimi mavjud bo'lib, jabrlanuvchilarning xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Hulosa o'rnida suni aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va mahalla institutini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Xususan, nizoli oilalar bilan ishlashda profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar faollarining hamkorligini kuchaytirish bo'yicha bir qator tashabbuslar ilgari surilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning yuqoridagi fikrlari mahallalarda nizoli oilalar bilan ishlashda profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar faollarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu islohotlar mahallalarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va oilaviy muammolarni samarali hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, mahallalarda nizoli oilalar bilan ishlashda tizimli yondashuv va samarali hamkorlik oilaviy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy muhitni yaxshilash hamda jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
- 2) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
- 3) O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni.
- 4) O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni.
- 5) Ijtimoiy hamkorlik: nazariya va amaliyot" – Ijtimoiy hamkorlik va uning huquqbuzarliklarni oldini olishdagi roli haqida.
- 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 209-son farmoni.
- 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-81-son Farmoni.